IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

ABU-L-MUIN NASAFIYNING YOZMA MEROSI TAVSIFI

Usarqulova Shaxrizoda Xusan qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti Islomshunoslik yo'nalishi
4-bosqich talabasi
ruziyevashaxrizoda609@gmail.com

Annotatsiya: Abu-l-Muin Nasafiy moturidiylik ta'limotini tizimlashtirishda beqiyos xizmat qilgan buyuk mutakallim bo'lib, uning ilmiy merosi keyingi davr tadqiqotchilari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Allomaning boy yozma merosi kalom, usul al-fiqh va furu al-fiqhga bag'ishlangan. Xususan, uning "Tabsiratu-l-adilla" asari moturidiylikdagi ikkinchi mo'tabar va eng yirik manba hisoblanadi. Maqolada Nasafiyning asarlarida qo'llagan uslubi, bugungi kunga qadar saqlanayotgan qo'lyozmalari, unga nisbat berilishi borasida ixtiloflar mavjud bo'lgan asarlar va ularga yozilgan sharhlar haqida ma'lumot beriladi. Abu-l-Muin Nasafiy merosining kalom ilmi taraqqiyotidagi o'rni, uning ilmiy maktab shakllanishiga qo'shgan hissasi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarbligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Abu-l-Muin Nasafiy, moturidiylik, kalom ilmi, Tabsiratu-l-adilla, aqida, usul al-fiqh, furu al-fiqh, ilmiy meros, islom ilmlari, aqliy va naqliy dalillar, qo'lyozmalar, sharhlar, mutakallimlar.

Abstract: Abu al-Mu'in al-Nasafi, a prominent theologian, made an unparalleled contribution to the systematization of the Maturidi doctrine, and his scholarly legacy continues to serve as a significant source for later researchers. His rich written heritage encompasses the fields of kalam, usul al-fiqh, and furu' al-fiqh. In particular, his work Tabsirat al-adilla is regarded as the second most authoritative and one of the most comprehensive sources in the Maturidi tradition. The article examines the methodological approach employed by al-Nasafi in his works, the manuscripts that have been preserved to the present day, the works attributed to him whose authorship remains disputed, as well as the commentaries written on them. It further analyzes the role of Abu al-Mu'in al-Nasafi's legacy in the development of kalam, his contribution to the formation of an intellectual school, and its relevance for contemporary academic research.

Keywords: Abu al-Mu'in al-Nasafi, Maturidism, kalam, Tabsirat al-adilla, Islamic theology, usul al-fiqh, furu al-fiqh, scholarly legacy, Islamic sciences, rational and textual proofs, manuscripts, commentaries, theologians.

الملخّص: يُعَدُّ أبو المعين النسفي متكلِّمًا عظيمًا قدَّم إسهامًا فريدًا في تقعيد المذهب الماتريدي وتنظيمه، ولا يزال تراثه العلمي يُعَدُّ مصدرًا مهمًّا للباحثين في العصور اللاحقة. ويشمل تراثه المكتوب مجالات علم الكلام، وأصول الفقه، وفروع الفقه. ويُعَدُّ كتابه »تبصرة الأدلة« ثاني أهمّ مصدرٍ ومن أكبر المصادر في المدرسة الماتريدية. تُقدِّم هذه المقالة عرضًا لمنهج النسفي في مؤلفاته، والمخطوطات التي حُفِظت إلى يومنا هذا، وكذلك المؤلفات التي وقع الخلاف في نسبتها إليه، إضافةً إلى الشروح التي كُتِبَت عليها. كما تُحلِّل مكانة تراث أبي المعين النسفي في تطوّر علم الكلام، وإسهامه في تشكيل مدرسة علمية، وأهميته بالنسبة للدراسات الأكاديمية المعاصرة.

الكلمات المفتاحية: أبو المعين النسفي، الماتريدية، علم الكلام، تبصرة الأدلة، العقيدة، أصول الفقه فروع الفقه، التراث العلمي، العلوم الإسلامية، الأدلة العقلية والنقلية، المخطوطات، الشروح، المتكلمون.

Movarounnahr kalom maktabining rivoji va moturidiylik ta'limotining tizimlashtirilishida Abu-l-Muin Nasafiy muhim rol o'ynagan. Uning yashagan davri turli aqidaviy ixtiloflar va mafkuraviy kurashlar avj olgan pallaga to'g'ri kelgani bois, olim o'z oldiga sof islom aqidasini

aqliy va naqliy dalillar bilan himoya qilish vazifasini qo‘ydi. Nasafiyning boy ilmiy merosi nafaqat o‘sha davr uchun, balki islom ilmlari taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun adashgan oqimlarning g’oyaviy jihatdan asossizligini isbotlashda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Abu-l-Muin Nasafiyning ilmiy faoliyati faqatgina kalom ilmi bilan cheklanib qolmay, islom ilmlarining boshqa sohalarini ham qamrab olgan. Jumladan, olimning yozma merosi usul al-fiqh va furu al-fiqh kabi fanlar rivojiga ham ulkan hissa qo‘shganini ko‘rsatadi. Uning asarlarida mantiqiy asoslanganlik va terminologik aniqlik ustuvor bo‘lib, bu aqidaviy va fiqhiy masalalarni yoritishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Olim qalamiga mansub har bir asar o‘zining ko‘lami va bayon uslubi bilan muayyan ilmiy maqsadlarga hamda o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos tarzda shakllantirilgan bo’lib, Movarounnahr ilmiy muhitining yuksak darajasini namoyon etadi.

Olimning tarjimai holiga bag’ishlangan manbalarda Abu-l-Muin Nasafiydan bir qancha asarlar meros bo’lib qolgani qayd etilgan. Ularning ayrimlari bir necha bor nashr etilgan, ba’zilari esa shu kungacha qo’lyozma holatida saqlab kelinmoqda. Shuningdek, ayrim asarlariga sharhlar ham yozilgan. Quyida uning asarlari haqida batafsil ma’lumot beriladi:

1. Tabsiratu-l-adilla fi usul ad-din. Asar allomaning hozirgi kunga qadar yetib kelgan eng muhim asari bo’lib, allomaning ismi ham shu kitob bilan birga “Sohib at-tabsira” sifatida tilga olinadi. Kitob aqidaviy masalalarining aksariyatini o’z ichiga olgan bo’lib, moturidiylik ta’limotida Imom Moturidiyning “Kitob at-avhid” saridan keyingi eng muhim manba hisoblanadi, jumladan, hajm jihatidan esa ulkan ensklopediya bo’lib, ta’limot bo’yicha eng yirik asardir. Ba’zi tadqiqotchilar tomonidan bu kitob “Kitob at-Tavhid” kitobining sharhi, tafsiri va izohi deb tavsiflangan.

Abu Vafo Qurashiyning “Javohir al-mudiyya”, Abdulhay Laknaviyning “al-Favoid al-bahiyya”, Qosim ibn Qutlibug’o Suduniyning “Toj at-Tarojim”, Kotib Chalabiy Hoji Xalifaning “Kashf az-zunun”, Abu al-Vafo Qurashiy Hanafiy “Hadiyyat al-orifin”, Kamol ibn Humomning “al-Musoyara”, Kamoliddin Ahmad Bayoziyning “Ishorat al-marom”, Nuriddin Sobuniyning “al-Kifoya fi hidoya min al-bidoya”, Xayriddin Zirikliyning “al-A’lam”, Rizo Kahholaning “Mu’jam al-muallifin”, Najmiddin Umar Nasafiyning “Aqoid an-nasafiyya”, Sa’duddin Taftazoniyning “Sharh al-maqosid” asarlarida hamda Abu-l-Muin Nasafiyning o‘ziga tegishli “At-tamhid li qovaid at-tavhid”da “Tabsiratu-l-adilla” haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, Iskandariya shahar kutubxonasi, Arab davlatlari ligasi qo‘lyozmalar instituti, Misr milliy kutubxonasi, Tal’at kutubxonasi, al-Azhar kutubxonasi va Istanbul kutubxonalari kataloglarida ham asarga doir qaydlar mavjud[1].

Asarning yozilish sababi borasida muallif uning muqaddimasida do’stlarining iltimosi bilan ahli sunna val jamoaning e’tiqodini isbotlash va turli zamondosh oqimlarning qarashlariga raddiya berish maqsadida yozganligini qayd etgan. Asar nafaqat ahli sunna e’tiqodini o’rganish, balki Nasafiydan oldin o‘tgan va u bilan zamondosh bo‘lgan aqidaviy oqimlar va ularning vakillari qarashlarini tahlil qilishda muhim manba sanaladi. Alloma asarda mo‘taziliylar bilan bahslar olib borgan va ularning qarashlariga raddiyalar bergan. Bundan tashqari Nasafiy moturidiy va ash’ariylarning munosabatlarini ham nazardan chetda qoldirmagan. Kitobning bir necha o’rinlarida ikki ta’limot orasida farqli jihatlari mavjud bo’lgan ma’rifatulloh, takvin va iste’toat kabi masalalarini tahlil qiladi. Muallif asarda avvalo ahli haqning qarashini qisqacha bayon qiladi, so‘ng muxoliflarning fikrini keltiradi, ularni tushuntiradi, shubhalarini bildiradi, keyin o‘z mazhabiga oid dalillarini keltiradi va nihoyat muxoliflarning shubhalarini rad etadi.

Muallif bu asarini robe’ul oxir oyining yettinchi kuni, asr vaqtida, hijriy 500-yilda tamomlagan.

[1] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Qohira: al-Maktaba al-azhariyya lit-turos, 2011. – B. 31.

2. At-tamhid li qovaid at-tavhid. Mo'tabar manbalarning deyarli barchasi ushbu asarning "at-Tamhid li-qovaid at-tavhid" deb nomlanishi borasida yakdildir. Xususan, asar ushbu nom bilan "al-Javohir al-mudiyya", Ibn Qutlubug'oning "Toj at-tarojim", Firuzobodiyning "Tabaqot al-Hanafiyya", Mulla Ali Qorining "Tabaqot al-hanafiyya", Bag'dodiyning "Hadiyyat al-orifin", Zirikliyning "al-A'lam" va Kahholaning "Mu'jam al-muallifin" kabi asarlarda zikr etilgan. Shuningdek, kutubxonalarning umumiy kataloglari hamda tadqiqot jarayonida asos qilib olingan qo'lyozma nusxalarning sarlavhalari ham ushbu nomni tasdiqlaydi. Biroq, ayrim manbalar va qo'lyozma nusxalarda asar nomining juz'iy farqli ko'rinishlari uchrashini ham qayd etish lozim. Jumladan, hozirgi kunda Istanbul universiteti kutubxonasida 267-raqam ostida saqlanuvchi qadimgi nusxasida asar nomi "Tamhid al-qovaid" deb yozilgan bo'lsa, Misr milliy kutubxonasida asar qo'lyozmasining uch nusxasi mavjud bo'lib, biri 41-raqam ostida saqlanib "at-Tamhid bi-qovaid at-tavhid" nomi bilan qady etilgan, ikkinchi nusxa esa 22991b raqam ostida saqlanib "Kitob at-Tamhid fi ilm at-tavhid" den nomlangan. Asar uchinchi nusxasi 172-raqam ostida saqlanadi va "Kitob at-Tamhid fi usul ad-din" deb nomlanadi[2]. Abdulhay Laknaviy "Al-Favoid al-bahiya" da asarni "Tamhid qovaid at-tavhid"[3] nomi bilan zikr etgan.

Ushbu tahririy farqlar asar nomining mohiyatini o'zgartirmaydi, balki predloglarning almashishi, izofa birikmasining turlicha qurilishi yoki asarning predmeti bo'lgan "tavhid ilmi" yoki "usul ad-din"ga ishora qilinishi natijasida yuzaga kelgan tavsifiy o'zgarishlardir.

Ushbu kitobning Abu-l-Muin Nasafiyga tegishliligi borasida barcha manbalar yakdildir. Faqatgina "Tabaqot al-hanafiyya" asari hoshiyasidagi qayd bundan mustasno bo'lib, unda asar Muhammad bin Makhulga nisbat berilgan. Bundan tashqari muallif "Tabsiratu-l-adilla" asarini ham Muhammad ibn Makhulga nisbat bergan.

"At-Tamhid li qovaid at-tavhid" asarini tahqiq qilgan Jibulloh Hasanning yozishicha, "Tabaqot al-hanafiyya" da bunday deb yozishiga sabab, Muhammad ibn Makhul – Maymun ibn Muhammadning uchinchi bobosi bo'lib, u ham Abu-l-Muin kunyasini olgan edi. Shuning uchun "Tabaqot" muallifi yuqorida zikr etilgan Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Mo'tamidni uning uchinchi bobosi Makhul ibn Muhammad bilan adashtirib yuborgan bo'lishi mumkin[4].

"At-Tamhid li-qovaid at-tavhid" kitobi kalom ilmidagi muxtasar kitoblardan biri bo'lishiga qaramay, u ko'plab aqidaviy masalalarni o'z ichiga olgan. Muallif ba'zi masalalarda, masalan, takvin, kalom masalasi, risolatni isbotlash va bandalar amallarining yaratilishi kabi mavzularda batafsil bayon va keng ko'lamli tahlil yo'lini tutgan.

Muallif kitobining muqaddimasida ushbu asarni hukmdorlardan birining iltimosiga ko'ra, unga Ahli sunna va jamoa aqidasini yozib berish uchun ta'lif etganini zikr qilgan[5]. Nasafiy bu hukmdorning ismini tilgan olmagan, balki uni faqat hukmdorlarga xos bo'lgan madh sifatlari bilan ta'riflash bilan kifoyalangan.

Abu-l-Muin o'z kitobini taqsimlash va tartibga solishda o'ta aniqlik bilan yondashgan. U kitobni haqiqatlar va ilmlarni isbotlash fasli bilan boshlaydi hamda haqiqatlarni inkor etuvchi sofistlar bilan munozara qiladi. Muallif olamning "hodis" ekanligini, balki vaqt nuqtai nazaridan keyin paydo bo'lganini dalillaydi. Bu esa, o'z navbatida, olamning o'z-o'zidan emas, balki uni vujudga keltiruvchi bir Yaratuvchiga muhtojligini ko'rsatib beradi.

---

[2] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 48.

[3] Muhammad Abdulhay Laknaviy Hindiy. Al-favoid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya. – Bayrut: Dor al-qomar, 1997. – B. 216.

[4] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 48.

[5] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 115.

Shundan so‘ng kitobning eng asosiy qismi – Ilohiyot bo‘limi keladi. Bu yerda Yaratuvchining nafaqat borligi, balki Uning yagonaligi va qadimiyligini isbotlaydi. Muallif Allohni maxluqlarga o‘xshatishdan poklash maqsadida Uning jism emasligi, javhar yoki a’zolardan tashkil topgan surat emasligi, rang, ta’m va hid kabi sifatlardan xoli ekanligini alohida fasllarda tushuntiradi. Shuningdek, Allohning biror makonda bo‘lishi haqidagi qarashlarni rad etib, Uning azaliy sifatlari kalom, iroda va takvin kabi tushunchalarni tahlil qiladi. Inson aqli Allohni (jannatda) ko‘rish imkoniyatini inkor etmasligi haqidagi “Ru’yatulloh” masalasi bilan Ilohiyot qismiga yakun yasaydi.

Kitobning keyingi qismi nubuvvat va inson amallariga bag‘ishlananadi. Bunda payg‘ambarlikning haqiqatligi va avliyolarning karomatlari bayon etiladi. Shu bilan birga, inson irodasi va taqdir masalasi o‘rtasidagi muvozanat ko‘rib chiqiladi. Bandalarning amallari Alloh tomonidan yaratilishi, insonning bu amallarga nisbatan quvvati (istito’at), rizq va ajal tushunchalari hamda gunoh ishlarning Allohning roziligisiz irodasi bilan sodir bo‘lishi kabi murakkab mavzular tizimli ravishda yoritiladi.

G‘aybiyot, iymon va imomat masalalari kitobning yakuniy qismidan o‘rin olgan. Bu yerda qabr azobi va undagi ne’matlar, gunohkor mo‘minlarning oxiratdagi holati, shafoatning haq ekanligi kabi faqat naql orqali bilinadigan g‘aybiy xabarlar keltiriladi. Kitob iymonning mohiyati nimalardan iborat ekanligi va “Imomat” masalasini tahlil qilish bilan o‘z nihoyasiga yetadi.

“At-Tamhid li qovaid at-tahmid” asarida ustida olib borilgan ilmiy ishlar quyidagilardir:

1. Husayn ibn Ali ibn Hajjoj Sig’noqiy Hanafiy (vafoti hijriy 710-yil, ba'zi manbalarda 707-yil deb aytilgan) “At-Tamhid” asariga “at-Tasdid fi sharh at-Tamhid” nomli sharh yozgan. “al-Javohir al-mudiyya” asari muallifi ushbu sharhni ulkan jildli asar deb ta’riflagan[6]. Ushbu kitobning qo'lyozma nusxasi Misr milliy kutubxonasida 13M raqami ostida kashf etilgan.

2. Habibulloh Hasan Ahmad Al-Azhar universitetining Usul ad-din fakultetida magistrlik darajasini olish uchun yozgan ilmiy dissertatsiyasida ushbu kitobni tadqiq qilgan. Tadqiqotda katta mehnat sarflagan va uni hijriy 1406-yilda Qohiradagi “Dor at-tiboa al-Muhammadiyya” nashriyotida chop ettirgan. Ushbu nashr taxminan 430 sahifadan iborat bo‘lib, uning 112 sahifasini tadqiqotchi muqaddimasi tashkil etadi.

3. Abdulhay Qobil ham ushbu asarni tadqiq qilib, hijriy 1407-yilda Qohiradagi “Dor as-saqofa” nashriyotida chop ettirgan.

3. Bahr al-kalom fi usul ad-din. Bu Abu-l-Muin Nasafiyning kalom ilmiga ba’g’ishlangan kitoblaridan uchinchisi bo‘lib, u 110 sahifadan oshmaydigan kichik matndir. “Kashf az-zunun”[7], “al-A’lam”[8], “Hadiyyat al-orifin”[9], “Mu’jam al-muallifin” kabi tarjimai hol kitoblarida ushbu asar Imom Nasafiyga nisbat beriladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, Iroq, Hijoz, Misr, Turkiya va Yevropada ushbu kitobning sanab bo‘lmaydigan darajada ko‘plab qo‘lyozmalari mavjud bo‘lib, ularda asarning Abu-l-Muin Nasafiyga tegishli ekani ochiq bayon qilingan.

Ba’zi tadqiqotchilar “Bahr al-kalom” boshqa ikki “Tabsiratu-l-adilla” va “at-Tamhid li qovaid at-tavhid” asarlaridan uslub jihatidan farq qilganligi sababli asar ulardan bir muncha vaqt oldin yozilgan deb hisoblaydilar.

[6] Muhammad ibn Nasrulloh ibn Salim ibn Abu al-Vafo Qurashiy Hanafiy. Al-javohir al-mudiyya fi tabaqot al-hanafiyya. – Qohira: Dor al-hijr, 1993. – J. II. – B. 114.
[7] Kotib Chalabiy Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asmo al-kutub val-funun. – Bayrut: Dor al-ihya, 2021. – J. I. – B. 665.
[8] Xoyriddin Zirkiliy. Al-a’lam qomus tarojim. – Bayrut: Dor al-malayin, 2002. – J. VII. – B. 341.
[9] Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Bag’dodiy. Hadiyyat al-orifin asmo al-muallifin va asor al-musannifin. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1955. – J. II. – B. 487.

Imom Nasafiy “Bahr al-kalom” kitobini yozishda Imom Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid”, Imom Abul Hasan Ash’ariyning “Kitob al-Luma’”, “Maqolat al-islomiyyin” va Imom Haramayn Abu Maoliy Abdulmalik Juvayniyning “Kitob al-irshod” asarlariga tayangan[10].

Muallif ushbu kitobida ilmiy bahs uslubini qo‘llagan bo’lib, bu haqiqatni ochib beruvchi uslubdir. Shuni ta’kidlash lozimki, muallif o‘z qarashini isbotlashda Qur’on oyatlari va sahih hadislardan juda ko‘p foydalangan. Bu jihat uni boshqa mualliflardan ajratib turadi hamda uning istidlol yo‘lida shar’iy manbalarni naqadar kuchli o‘zlashtirganini ko‘rsatadi.

Asarning bitta qo‘lyozma nusxasi Dubaydagi “Juma al-Majid” madaniyat va meros markazining qo‘lyozmalar bo‘limida 766-raqami ostida saqlanmoqda, u hijriy 1167-yilda yozilgan. Shuningdek, yana bir nusxasi Damashqdagi “az-Zohiriya” kutubxonasida 4970-raqami ostida mavjud. Yana bir nusxasi Bag‘doddagi Vaqflar kutubxonasida 1-4365-raqami ostida, majmualar ketma-ketligida 2735-raqamda saqlanmoqda. Bundan tashqari, Misr milliy kutubxonasida 113m raqami ostida bir nusxasi bor. Iskandariya shahar kutubxonasida esa hijriy 950-yilda yozilgan n-2109-d raqamli qo‘lyozma nusxasi mavjud.

Kitob milodiy 1886-yilda Bag‘dodda hech qanday tadqiqsiz toshbosma usulida nashr etilgan. Shuningdek, hijriy 1329-yilda Qohirada ham tadqiq qilinmagan holda chop etilgan[11].

Badruddin Hasan ibn Abu Bakr Maqdisiy asarga “G‘oyat al-marom” deb nomlangan sharh yozgan. Ushbu sharhning qo‘lyozma nusxasi Misr milliy kutubxonasida 123-raqami ostida va yana bir nusxasi Misrdagi “al-Maktaba al-xidiviyya”da saqlanmoqda, u hijriy 1118-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, 123nx, 2368na’ raqami ostida ro‘yxatga olingan.

4. Kitob al-ifsod li-xuda’ ahl al-ilhad. Ushbu asar borasida muallifning o‘zi “Tabsiratu-l-adilla” kitobida zikr qilib o‘tgan[12]. Imom Nasafiy bu asarni botiniylarga raddiya sifatida tasnif etganini ta’kidlagan. Ushbu kitob haqida ma’lum bo‘lgan barcha narsa faqat shu ma’lumotdan iborat.

5. Izoh al-hujja li kavn al-aql al-hujja. Shu nomdagi asari mavjudligini Imom Nasafiy “at-Tamhid li qovaid at-tavhid” va “Tabsiratu-l-adilla” asarlarida zikr qilgan.

Alloma “Tabsiratu-l-adilla” da quyidagicha bayon qiladi: “Ushbu mavzuda (ya’ni mutakallimlar nazdidagi hikmat va safsata ma’nolarining bayoni xususida) batafsil ma’lumotlar mening alohida bir tasnifimda mavjud bo’lib, hozircha uni yakunlashga ulgurmadim. Alloh taolodan ushbu kitobni yakunlaganimdan so’ng, u asarni ham tamomlashga muvaffaq qilishini so’rayman[13]”.

Yana bir o’rinda: “Ushbu qavlning (ya’ni mutakallimlar nazdidagi hikmat tushunchasining) to’g’riligi haqidagi bahslar mening aynan shu masalaga bag’ishlangan alohida bir asarimda zikr qilingan[14]” deb, shu asarga ishora qilgan.

“At-Tamhid li qovaid at-tavhid” asarida esa asar nomini bevosita zikr qilib o’tgan: “Xoliq azza va jallaning Hakim ekani isbotlangach, biz ta’dil va tajvir masalalari bilan shug‘ullanamiz. Zero, bu masalalarning hikmat yoki safsata ekani xususida ixtiloflar mavjud. Biz ushbu kitobga munosib miqdorda har bir masalani zikr etib o‘tamiz. Bu boradagi batafsil bayonlar esa avvalgi

[10] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Bahr al kalom fi usul ad-din. – Damashq: Dor al-farfur, 2000. – B. 27.
[11] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Bahr al-kalom fi usul ad-din. – Damashq: Dor al-farfur, 2000. – B. 29.
[12] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Damashq: al-Ma’had al-Ali li dirosa al-islamiyya, 1990. – B. 837.
[13] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Damashq: al-Ma’had al-Ali li dirosa al-islamiyya, 1990. – B. 385.
[14] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Damashq: al-Ma’had al-Ali li dirosa al-islamiyya, 1990. – B. 664.

“Tabsiratu-l-adilla” hamda “Izoh al-hujja li kavn al-aql al-hujja” asarimizda Allohning hamdi va ne’mati ila bayon etilgan”[15].

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, Abu-l-Muin Nasafiyning “Izoh al-hujja li kavn al-aql al-hujja” nomli asari mavjud bo‘lib, bu kitob “at-Tamhid li qovaid at-tavhid”dan avval “Tabsiratu-l-adilla”dan keyin yozilgan. Asar hikmat, ta’dil va tajvir masalalarini qamrab olgan. “Izoh al-maknun”[16] va “Hadiyyat al-orifin”[17] mualliflari ham ushbu asarni Nasafiyga nisbat berganlar. Biroq, ushbu kitobning na bosma va na qo‘lyozma nusxasi hozirga qadar topilmagan.

6. Al-Umda fi usul ad-din. Ushbu kitob Xayriddin Zirikliyning “Al-A’lam qomus tarojim” asarida Nasafiyga nisbat beriladi[18]. Tadqiqotchi Muhammad Anvar esa bu nisbatni rad etgan. “At-Tamhid” asari muhaqqiqi Jiybulloh Hasan hamda Imom Nasafiy merosi bo’yicha tadqiqotchi Manal Rofeiy ham o’zining Nasafiy haqidagi tadqiqotida ushbu fikrni qo’llab-quvvatlagan. Ularning fikriga ko’ra, asar “al-Manor” va “al-Madorik” asarlari muallifi, Hofiziddin Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad Nasafiyga tegishli. Shuningdek, Ibn Qutlubog’o, Laknaviy va Zirikliylar ham ushbu asarni unga nisbat berganlar. Kitobning qo’lyozma nusxasi Madinada “Orif Hikmat” kutubxonasida Abu Barakot nomi bilan saqlanmoqda. Asar 1843-yilda Londonda chop etilgan bo'lib, tadqiqotchi Kyureton unga “al-E’timod sharh al-umda al-aqoid” deb nom bergan.

Lekin bu ma’lumotlar Abu-l-Muin Nasafiyga nisbat berilgan asar aslida Abu Barakot Nasafiyga tegishli ekanini isbotlash uchun kifoya qilmaydi. Abu Barakot Nasafiyga kelsak, uning ayni shu nomdagi asari borligi qat’iy. Biroq, Abu Muinga nisbat berilgan asar aynan o’sha kitobmi yoki boshqasimi aniq emas.

7. Kitob fi sifat al-kalom. Imom Nasafiy ushbu asari borasida “Tabsiratu-l-adilla”da to’g’ridan-to’g’ri nomini zikr qilmasdan ishora qiladi: “Ushbu yo‘llardan tashqari, “Latif al-kalom” mavzusiga oid boshqa aqliy yo‘llar ham mavjud bo‘lib, biz ularni ushbu masala bo‘yicha alohida yozilgan kitobimizda zikr etganmiz. Bu yerda so’z cho’zilib ketmasligi uchun ularni keltirishni tark qildik. Tavfiq Allohdandir”[19].

Asarda Allohning kalom sifati borasida so’z boradi. Asarning qo’lyozma nusxalari va nashr qilingani borasida ma’lumotlar yo’q.

8. Sharh al-Jome’ al-kabir. “Al-Jome’ al-kabir” asari Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniyga mansub bo’lib, hanafiy fiqhida ulamolar ushbu asarga katta e’tibor qaratganlar va ko‘plab sharhlar yozganlar.

Abu-l-Muin Nasafiy ham mazkur asarga sharh yozgan bo’lib, u “al-Favoid al-bahiyya”[20], “Hadiyyat al-orifin”[21] va “al-A’lom”[22] va “Kashf az-zunun”[23] kabi manbalarda zikr etilgan.

---

[15] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 256.
[16] Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Babaniy Bag’dodiy. Izoh al-maknun fi zayl ala Kashf az-zunun. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1947. – J. I. – B. 156.
[17] Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Bag’dodiy. Hadiyyat al-orifin asmo al-muallifin va asor al-musannifin. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1955. – J. II. – B. 487.
[18] Xayriddin Zirkiliy. Al-a’lam qomus tarojim. – Bayrut: Dor al-malayin, 2002. – J. VII. – B. 341.
[19] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 281.
[20] Muhammad Abdulhay Laknaviy Hindiy. Al-favoid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya. – Bayrut: Dor al-qomar, 1997. – B. 216.
[21] Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Bag’dodiy. Hadiyyat al-orifin asmo al-muallifin va asor al-musannifin. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1955. – J. II. – B. 487.
[22] Xayriddin Zirkiliy. Al-a’lam qomus tarojim. – Bayrut: Dor al-malayin, 2002. – J. VII. – B. 341.
[23] Kotib Chalabiy Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asmo al-kutub val-funun. – Bayrut: Dor al-ihya, 2021. – J. I. – B. 570.

9. Manohij al-aimma fi al-furu. Asar “Kashf az-zunun”[24] muallifi Kotib Chalabiy Xoji Xalifa tomonidan shunday nomlangan. Shuningdek, Laknaviy[25], Bag‘dodiy[26], Zirikliy[27] ham asarni Nasafiyga nisbat bergan.

Asarning mavzusiga borasida “Kashf az-zunun” muallifi uni furu al-fiqh sohasiga oid deb belgilagan. Bag‘dodiy, Zirikliy va Rizo Kahholalar ham unga ergashganlar, faqat Kahhola asar doirasini hanafiy fiqhi tarmoqlari bilan aniqlashtirgan va haqiqatga yaqini ham shudir.

10. Tasayyud al-qovaid fi ilm al-aqoid. “At-tamhid li qovaid at-tavhid” asarini tahqiq qilgan Jibulloh Hasan ushbu asarni Imom Nasafiyga nisbat bergan[28]. Kitobning ikki nusxasi mavjud: birinchisi Istanbul universitetida 268-raqam ostida, ikkinchisi esa Arab davlatlari ligasi qoshidagi Qo‘lyozmalar institutida 69-raqamli mikrofilm sifatida saqlanmoqda.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Movarounnahrda yetishib chiqqan buyuk mutakallimlardan biri Abu-l-Muin Nasafiy islom ilmlari rivojida muhim o‘rin tutadi. Uning ilmiy faoliyati moturidiylik ta’limotining shakllanishi va tizimlashtirilishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Allomaning yozma merosi o‘z davrining aqidaviy bahs-munozaralari, ilmiy qarashlari va mafkuraviy jarayonlarini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Allomaning ilmiy merosi kalom ilmining nazariy asoslarini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida aqidaviy masalalar tizimli ravishda bayon qilinib, murakkab nazariy tushunchalar izchil tarzda sharhlanadi. Muallif ilmiy munozara uslubidan samarali foydalanib, turli oqimlar qarashlarini tahlil qiladi hamda ularning dalillarini baholaydi. Mazkur yondashuv asarlarining ilmiy asoslanganini kuchaytirib, ularni keyingi davr tadqiqotchilari uchun muhim ilmiy manba sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Nasafiy ilmiy merosining yana bir muhim jihati shundaki, unda aqidaviy masalalar faqatgina nazariy jihatdan emas, balki mantiqiy asoslangan ilmiy tizim doirasida ko‘rib chiqiladi. Muallif o‘z qarashlarini asoslash jarayonida Qur’on oyatlari va hadislar bilan bir qatorda aqliy dalillardan ham keng foydalanadi. Bu esa kalom ilmining asosiy metodologik tamoyillaridan biri bo‘lgan aql va naql uyg‘unligini yaqqol namoyon etadi.

Alloma qalamiga mansub asarlar keyingi davr ulamolari tomonidan keng o‘rganilgan, ularga sharhlar yozilgan hamda ko‘plab qo‘lyozma nusxalari turli kutubxonalarda saqlanib qolgan. Bu holat Nasafiy ilmiy merosining o‘z davridayoq keng tarqalganini va keyingi davrlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Qohira: al-Maktaba al-azhariyya lit-turos, 2011. – B. 1306.
2. Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 168.
3. Muhammad Abdulhay Laknaviy Hindiy. Al-favoid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya. – Bayrut: Dor al-qomar, 1997. – B. 262.
4. Muhammad ibn Nasrulloh ibn Salim ibn Abu al-Vafo Qurashiy Hanafiy. Al-javohir al-mudiyya fi tabaqot al-hanafiyya. – Qohira: Dor al-hijr, 1993. – J. II. – B. 776.

[24] Kotib Chalabiy Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asmo al-kutub val-funun. – Bayrut: Dor al-ihya, 2021. – J. II. – B. 1845.
[25] Muhammad Abdulhay Laknaviy Hindiy. Al-favoid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya. – Bayrut: Dor al-qomar, 1997. – B. 216.
[26] Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Babaniy Bag’dodiy. Izoh al-maknun fi zayl ala Kashf az-zunun. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1947. – J. II. – B. 563.
[27] Xayriddin Zirkiliy. Al-a’lam qomus tarojim. – Bayrut: Dor al-malayin, 2002. – J. VII. – B. 341.
[28] Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Qohira: Dor al-imon, 1986. – B. 25-26.

5. Kotib Chalabiy Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asmo al-kutub val-funun. – Bayrut: Dor al-ihya, 2021. – J. I. – B. 2056
6. Xoyriddin Zirkiliy. Al-a'lam qomus tarojim. – Bayrut: Dor al-malayin, 2002. – J. VII. – B. 352.
7. Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Bag'dodiy. Hadiyyat al-orifin asmo al-muallifin va asor al-musannifin. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1955. – J. II. – B. 574.
8. Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Bahr al kalom fi usul ad-din. – Damashq: Dor al-farfur, 2000. – B. 355.
9. Ismoil Posho ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Babaniy Bag'dodiy. Izoh al-maknun fi zayl ala Kashf az-zunun. – Bayrut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1947. – J. I. – B. 328.